INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.26/2025.27.12.Yu/S.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI DAVLAT VA HUQUQ INSTITUTI

TURSOATOV SODIQ XUDOYOR O‘G‘LI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUQUQIY SIYOSATIDA RAG‘BATLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi

yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K:340.13:331.108.54(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Table of Contents of the PhD Dissertation Abstract

Tursoatov Sodiq Xudoyor o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasining huquqiy siyosatida rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish .....……...…….....**.....**.… 3

Турсоатов Содик Худоёр угли
Совершенствование системы поощрения в правовой политике Республики Узбекистан…… 21

Tursoatov Sodik Khudoyor ugli
Improvement of the incentive system in the legal policy of the Republic of Uzbekistan.……..41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....45

INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.26/2025.27.12.Yu/S.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI DAVLAT VA HUQUQ INSTITUTI

TURSOATOV SODIQ XUDOYOR O‘G‘LI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUQUQIY SIYOSATIDA RAG‘BATLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi

yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1017 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nhrc.uz) hamda “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Turgunov Murodjon Tursunbayevich** yuridik fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xudoyberdiyev Axror Qosimaliyevich** yuridik fanlari doktori, professor
	Utemurodov Maxmud Ajimuratovich yuridik fanlar nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi IIV malaka oshirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/2025.27.12.Yu/S.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-iyul kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100029, Toshkent shahar, Islom Karimov ko‘chasi, 15 uy. Tel.: (+99871) 239-40-23; E-mail: info@nhrc.uz).

Dissertatsiya bilan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100029, Toshkent shahar, Islom Karimov ko‘chasi, 15 uy. Tel.: (+99871) 239-40-23;).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “03” 07 kuni tarqatildi.
(2026-yil “1” iyul 3-raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A. Tillabayev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlari doktori, professor

O‘.S.Ochilov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, dotsent

G.Yuldasheva
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo huquqiy tizimlarida rag‘batlantirish siyosatini tobora ro‘yobga chiqarish, rag‘batlantirishni jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi muhim omiliga aylantirish, muayyan mamlakatning huquqiy taraqqiyoti jarayonlarini boshqarish, huquqiy turmushni tashkil etish va tartibga solinganlik darajasini yuksaltirish, shaxs-jamiyat-davlat munosabatlarini huquqiy tartibga solishda rag‘batlantirishni birlamchi omil sifatida tan olish, davlat va jamiyat hayotida, mamlakatlarning siyosiy-huquqiy tizimida rag‘batlantirishning samarali institutlarini hamda huquqiy mexanizmlarni yaratish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu sababli davlat huquqiy siyosatida rag‘batlantirishning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy mexanizmlarini ilmiy o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Jahonning ilg‘or demokratik mamlakatlarida rag‘batlantirishning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma’naviy-ruhiy jihatlarini chuqur anglashga yo‘naltirilgan maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasi rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish jamiyat taraqqiyotining umumiy zaruriyatiga, ijtimoiy taraqqiyotning muhim shartlaridan biriga aylanganini ko‘rsatmoqda. Rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosat mamlakat va hududning to‘la qonli hamda samarali huquqiy tizimini rivojlantirish xizmat qiladi. Bugungi kunda 180 dan ortiq mamlakatlarda davlat mukofotlari tizimi alohida qonunlar bilan tartibga solinadi[1]. Xorijiy mamlakatlar huquqiy siyosatida rag‘batlantirish omilini o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

O‘zbekistonda mustaqil taraqqiyotimizning o‘tgan davri mobaynida huquqiy siyosatda rag‘batlantirish omilini kengaytirishga yo‘naltirilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat mukofotlari turlari, miqdori ortib yangidan-yangi orden, medal, faxriy unvonlar, ko‘krak nishonlari, idoraviy mukofotlar joriy etilmoqda. “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonda belgilangan, O‘zbekiston — 2030» strategiyasining hozirgi umumjahon tendensiyalari, global o‘zgarishlar va yangi chaqiriqlarga uyg‘unligini ta’minlash[2] hamda davlatimiz rahbarining O‘zbekiston xalqiga va Oliy Majlisga Murojaatnomasida, ayniqsa O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish o‘zining samarasini beradi. Mustaqillik yillarida jami bo‘lib 34 yo‘nalish bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xodim” unvonlari ta’sis etildi. Istiqlol yillari davomida jami bo‘lib 5200 dan ortiq shaxslar faxriy unvonlarga sazovor bo‘ldilar. Shundan 50 dan ortiq san’at arbobi, 100 dan ortiq fan arbobi, 80 dan ortiq xalq artisti, 40 dan ortiq O‘zbekiston iftixori va h.k. faxriy unvoniga ega

[1] Награды мира // https://wawards.org/oldsite/obnovl.html

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 16.02.2026 yildagi PF-21-son //Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.02.2026 y., 06/26/21/0145-son; 30.03.2026 y., 06/26/46/0290-son

bo‘lganlar. Faqat 2025-yilning 1-yanvaridan 1-dekabrga qadar bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston va xorijiy fuqarolarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash to‘g‘risida o‘ndan ortiq farmonlar qabul qilingan. Mazkur farmonlar asosida 1033 nafar shaxslar davlat mukofoti bilan mukofotlandilar.

O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (2023), O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mukofotlari to‘g‘risida”gi qonuni (2018), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2026), “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” (2019), “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2023), “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2020) Farmonlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosatning ayrim nazariy va huquqiy qirralari azaldan faylasuflar, huquqshunoslarni qiziqtirib kelgan. Huquqiy rag‘batlantirish masalasi mamlakatimizda akademiklar A.X.Saidov, H.R.Raxmonqulov, Sh.Z.Urazayev, A.A.A’zamxo‘jayev, professorlar M.A.Tillabayev, G.Yuldasheva, J.Toshqulov, F.A.Muxitdinova, M.A.Axmedshayeva, M.M.Fayziyev, H.T.Odilqoriyev, U.T.Tadjixanov, Sh.Ro‘zinazarov, M.Matmurodova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan[1].

Xorijiy mamlakatlarda bu masala bilan M.I.Baytin, V.M.Baranov, V.A.Vinokurov, Y.V.Golik, V.M.Gorshenev, V.A.Grigorev, N.A.Gushina, I.V.Devyashin, V.M.Duel, V.F.Dyachenko, V.A.Yeleonskiy, O.M.Kiselyeva, V.N.Kudryavsev, A.V.Malko, N.I.Matuzov, A.S.Nalbandyan, V.V.Nirkov kabi olimlar qiziqishgan. Yevropalik olimlardan Guido Calabresi (Italiya), Rolf Stürner (Germaniya), Stefan Grundmann (Germaniya), Christian Kirchgaessner (Germaniya), Bruno Frey (Shveysariya) kabilar huquqiy rag‘batlantirish sohasida ilmiy tadqiqot olib borganlar.

“Huquqiy rag‘batlantirish” tushunchasi yuridik fanda umumnazariy jihatdan (X.T.Odilqoriyev, Z.M.Islamov, Sh.Saydullaev, S.S.Alekseyev, V.N.Kudryavsev, V.M.Gorshenev, Yu.A.Tixomirov, A.S.Nalbandyan, T.A.Gumenyuk va boshqalar), mehnat huquqi sohasida (S.S.Karinskiy, V.I.Kurilov, N.V.Gudimov, V.I.Nikitinskiy va boshqalar), ma’muriy huquq sohasida (M.Ziyadullaev, N.M.Konin,

[1] Adabiyotlar ro‘yxati dissertatsiyada to‘liq keltirilgan.

V.I.Novoselov, A.P.Korenev, G.M.Petrov, A.I.Orlov va boshqalar), jinoyat huquqida (V.M.Galkin, V.E.Yeleonskiy, I.E.Zvecharovskiy, Y.V.Golik va boshqalar), jinoyat-ijroiya huquqida (A.F.Siziy, R.A.Sabitov va boshqalar), fuqarolik huquqida (V.S.Konstantinova, S.T.Maksimenko, M.G.Pronina, B.M.Seynaroyev, V.N.Skabelkin va boshqalar), ekologik huquqida (J.Xolmo‘minov, A.Nig‘matov, O.V.Danilenko va boshqalar) o‘rganilgan.

Shu bilan birga davlat mukofotlari, mukofot qonunchiligi, huquqni qo‘llash masalalariga huquqshunoslik fani tomonidan yetarli e’tibor berilmay kelindi va bu hali ham davom etmoqda. Huquqshunoslik adabiyotlarida mazkur muammoning ba’zi jihatlarini yorituvchi alohida maqolalar nashr etilgan. Davlat hokimiyatining rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosati nazariy va amaliy masalalari alohida tadqiqot mavzusi sifatida o‘rganilgani yo‘q. Mazkur mavzu yuzasidan kompleks tadqiqot olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Davlat va huquq institutining ilmiy tadqiqot 2021-2025 yillarga mo’ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur dissertatsiya tadqiqotidan ko‘zlangan asosiy maqsad, respublikamiz davlat hokimiyatining rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosatining nazariy asoslarini tahlil etish, bu sohadagi amaliyotni, faktik materiallarni, amaldagi qonunchilik tizimini o‘rganish hamda uning natijasida tegishli taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, mavzuni o‘rganishning quyidagi **vazifalar** belgilandi:

huquqiy siyosat tizimida rag‘batlantiruvchi siyosatning o‘rnini aniqlash va uning mazmunini ochib berish;

huquqiy rag‘batlarning tushunchasi, maqsadi va vazifalarini ilmiy tahlil etish;

davlat hokimiyatining rag‘batlari tizimini tahlil etish asnosida ularning turlarini ko‘rsatib berish;

davlat mukofotlarining tushunchasini ochib berish va tasniflash;

shaxsning muayyan sohada xizmat ko‘rsatishini mukofotlashning asosi sifatida tadqiq etish;

davlat mukofotlari bilan bog‘liq xorijiy mamlakatlar huquqiy tajribasini qiyosiy-tarixiy tahlil qilish;

davlat rag‘batlarining huquqiy asoslarini unifikatsiyalashga qaratilgan takliflar ishlab chiqish;

mukofotlashning tartib-taomillarini oydinlashtirish va uni takomillashtirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti. O‘zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati tomonidan amalga oshirilayotgan rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosat, bu boradagi davlat hokimiyati organlarining (mansabdor shaxslarining) faoliyati tadqiqot ishining obyekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Dissertatsiyaning predmeti sifatida huquqiy rag‘batlantirishning metodologik asoslari, Davlat mukofotlarining tasnifi, davlat rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosatining istiqbollari tanlangan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tizimlashtirish, qiyosiy-huquqiy tahlil, normativ-huquqiy tahlil, umumlashtirish, mantiqiylik hamda ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

davlatning huquqiy rag‘batlantirish siyosati jamiyat hayotining barcha jabhasini qamrab olishi, davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etishi hamda rag‘batlantirishi asoslantirilgan;

O‘zbekistonning kelajagi yoshlar ekanligini nazarda tutib, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantirishi asoslab berilgan;

O‘zbekiston jamiyati va davlatining taraqqiyotini, insonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashda tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati yuksakligi, tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama rag‘batlantirish lozimligi asoslab berilgan;

insonning toza atrof-muhitda yashash huquqini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarining samaradorligini oshirish maqsadida ekologik faoliyatni rag‘batlantirish lozimligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davlatning rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosatining mazmun-mohiyatini o‘rganish huquqning samaradorligi, rag‘batlantiruvchi siyosat siyosiy-huquqiy va nazariy asoslarini kengaytirish va boyitishga xizmat qiladi.

davlatning rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosatini ilmiy tahlil etish natijasida chiqarilgan xulosalar mamlakatimizning huquqiy tartibga solish mexanizmlarini, rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosatining normativ asoslarini takomillashtirishga imkon beradi.

davlat mukofotlari tizimi, tarkibi, amal qilish, yuksak xizmat ko‘rsatish tahlili qonunlarni unifikatsiyalash asosida davlat mukofotlari to‘g‘risidagi kodeks qabul qilish zaruriyatini asoslashga xizmat qiladi.

jamiyat huquq sohalarida rag‘batlantiruvchi siyosatning amal qilishini o‘rganish, huquq sohalarida huquqni qo‘llash, uni amalga oshirish, ijro etishning samaradorligini oshirishga, jamiyat a’zolarida huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishga ko‘maklashadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya natijalari milliy qonunchilik hujjatlari, rivojlangan davlatlar tajribasi va huquqni qo‘llash amaliyoti tadqiq qilinib, keng jamoatchilik orasida ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazilib, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar orqali rasmiylashtirildi hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilindi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlandi va amaliyotga tatbiq qilindi.

Ilmiy tadqiqot davomida fuqarolarning davlat mukofotlari to‘g‘risidagi qonunchilik qoidalarini bilishlari, davlat mukofotlari bilan rag‘batlantirish tartibi

to‘g‘risida xabardorligini o‘rganish maqsadida 784 nafar respondentdan ijtimoiy so‘rov o‘tkazildi, uning natijalari umumlashtirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo‘llash amaliyotida, davlat mukofotlari to‘g‘risidagi qonunchilik normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda Davlat va huquq nazariyasi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati davlatning huquqiy rag‘batlantirish siyosatida, davlat mukofotlari to‘g‘risidagi qonunni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta’lim muassasalarida “Davlat va huquq nazariyasi”, “Konstitutsiyaviy huquq” fanlarini o‘qitishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “O‘zbekiston Respublikasining huquqiy siyosatida rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqot bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etishi hamda rag‘batlantirishi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O‘RQ-837-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunining 1-moddasiga asosan, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 43-moddasining ikkinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2024-yil 5-martdagi 04/10-10-26-son dalolatnomasi*);

davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantirishi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O‘RQ-837-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunining 1-moddasiga asosan, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 79-moddasining birinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2024-yil 5-martdagi 04/10-10-26-son dalolatnomasi*);

O‘zbekiston jamiyati va davlatining taraqqiyoti, inson iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashda tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati yuksakligi, tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama rag‘batlantirish lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-apreldagi “Davlat mukofotlari to‘g‘risida”gi qonunning 7-moddasini “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan tadbirkor” faxriy unvoni ta’sis etish to‘g‘risidagi 29-bandni kiritishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 4-avgustdagi №3/08-113-sonli dalolatnomasi*).

O‘zbekiston xalqi kelajagi, uning turmush sharoitlarini yaxshilash, insonning toza atrof-muhitda yashash huquqini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida ekologik faoliyatni rag‘batlantirish lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston

Respublikasining 2018-yil 11-apreldagi “Davlat mukofotlari to‘g‘risida”gi qonunning 7-moddasini “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ekolog” faxriy unvoni ta’sis etish to‘g‘risidagi 34-bandni kiritishda foydalanilgan. (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 4-avgustdagi №3/08-113-sonli dalolatnomasi*).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot natijasi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan OAK nashrlarida 7 ta ilmiy maqola (2 ta xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ilmiy tadqiqot ishi kirish, 8 paragrafni o‘z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilova qismlaridan iborat bo‘lib, uning hajmi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Huquqiy rag‘batlantirishning nazariy-huquqiy asoslari**” deb nomlanib, unda huquqiy siyosat tizimida rag‘batlantiruvchi siyosat va uning mazmuni, davlatchilik va huquq taraqqiyotida rag‘batlantiruvchi siyosat huquqiy rag‘batlarning tushunchasi, tasnifi va funksiyalari masalalari ilmiy o‘rganilgan.

Ushbu bobda huquqiy siyosat, rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosat tushunchasi, mazmuni, mohiyati, tarkibi, yo‘nalishlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Bu borada (mutafakkirlar A.N.Radishev, R.Iyering, huquqshunos olimlar, A.V.Malko, Z.M.Islamov, H.T.Odilqoriyev, G.Petrov, P.A.Sorokin) fikrlari o‘rganilib, ushbu tushuncha borasida hanuzga qadar yagona fikr shakllanmaganligi, ularning mazmuni, mohiyati, tarkibi turlicha talqin etilayotganligi uqtiriladi. Huquqiy siyosat mamlakatning huquqiy taraqqiyoti jarayonlarini boshqarish, huquqiy turmushni tashkil etish va tartibga solinganlik darajasini yuksaltirishga xizmat qilishi, u huquqiy faoliyat, huquqiy sohadagi ustuvor yo‘nalishlar tizimidan iboratligi, konstitutsiya va umume’tirof etilgan xalqaro huquq normalariga tayanishi, asosan normativ-huquqiy hujjatlarda mujassamlanishi, jamiyat va davlatning tegishli organlari hamda o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini, huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatning ilg‘or-huquqiy taraqqiyoti va uning huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish kabi dolzarb muammolarni hal etishga yo‘naltirishi, samarali huquqiy tizimini

shakllantirish uchun zarur ekanligi ta’kidlanadi. Muallif fikricha, huquqiy siyosat umumiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u jamiyat hayotining barcha qirralarini qamrab oladi. Jamiyatning ilg‘or huquqiy tizimini shakllantirish, huquqiy manbani takomillashtirish, huquqiy hayot muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan ilmiy asoslangan, tizimli, muntazam faoliyat hisoblanadi.

Tadqiqot ishida rag‘batlantirish huquqiy siyosatning mohiyati, maqsadi, uni amalga oshirish omillari, vazifalari, belgilari ilmiy tahlil qilingan. Huquqiy rag‘batlantirish jamiyat hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etishi, insonni ezgulikka intilishiga, o‘z xizmat majburiyatlari, jamiyat oldidagi mas’uliyatini chuqur his etishiga asoslanishi, huquqiy rag‘batlantirish davlat hokimiyati organlari tomonidan shaxs yuksak huquqiy xulq-atvorini tan olish va ma’qullash shakli ekanligi uqtiriladi.

Dissertatsiyada huquqiy rag‘batlantirish instituti taraqqiyotini o‘rganish natijasida, mazkur institut oddiydan murakkab shaklga qarab boruvchi uzoq tadrijiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tganligi, avvallari rag‘batlantirishlar asosan ibtidoiy xususiyatga ega bo‘lganligi, ijtimoiy munosabatlarning o‘z doirasida amalda bo‘lganligi, jamiyat hayoti faoliyati murakkablashib borgan sari davlatdagi ijtimoiy aloqalarning xususiyatlari o‘zgarib borishi natijasida rag‘batlantirish shakllari murakkablashib borganligi, rag‘batlantirish choralari davlatchilik taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq holda qonunchilik orqali tartibga solinganligi, ma’lum bir tizim ko‘rinishini olganligi hamda sohaviy yuridik institut maqomi darajasiga erishganligi tahlil etilgan.

Dissertant Amir Temur davlatida rag‘batlantirish siyosati mamlakatni mustahkamlash, iqtisodiy, harbiy salohiyatini yuksaltirish, xalq farovonligini ta’minlash, qo‘shinning cheksiz sadoqatiga erishish, yurtda barqarorlik va tinchlikni ta’minlashga xizmat qilganligini, bunday rag‘batlantirishlar Amir Temur saltanatida nihoyatda ulkan samara berganligini tarix isbotlab berilganligini ta’kidlaydi.

Dissertatsiya ishida huquqiy rag‘batlantirish – huquq subyekti tomonidan sodir etiladigan ixtiyoriy, ijobiy xulq-atvorning jamiyat va davlat tomonidan yuridik jihatdan qo‘llab-quvvatlash chorasi hisoblanishi, shuning natijasida subyekt uchun ma’qul bo‘lgan oqibatlar vujudga kelishi tahlil etiladi. Unga ko‘ra, huquqiy rag‘batlantirish jamiyat va davlat uchun ma’qul bo‘lgan ixtiyoriy harakatga asoslanadi; yuridik qo‘llab-quvvatlashning biri sifatida ifodalanadi; davlat va jamiyat hamda rag‘batlantiriluvchi subyekt uchun zarur, o‘zaro manfaatli, bevosita turli manfaatlarni uyg‘unlashtiradi; nafaqat ijobiy harakatlarga undovchi, balki jamiyatga zid bo‘lgan huquqqa xilof harakatdan to‘xtatib qoladi; vakolatli davlat organlari tomonidan huquqni qo‘llash akti qabul qilish jarayonida amalga oshiriladi.

Muallif fikricha, huquqning tartibga soluvchi rag‘batlantiruvchi usuli deganda, davlat hokimiyat organlarining jamiyat hayotining barcha sohalarini tartibga solish, muntazam faoliyatini yo‘lga qo‘yish, jamiyatning ildam taraqqiyotini ta’minlash, jamiyat hayoti uchun e’tiborga molik sohalarning rivojlanishiga madad berish, bunda jamiyat har bir a’zosini ijobiy yuksak qobiliyatidan samarali foydalanish, ularning sa’y-harakatini qo‘llab-quvvatlashda qo‘llaydigan usullar yig‘indisidir.

Shunday qilib, huquqiy rag‘batlantirish – bu huquq subyektlarining o‘z majburiyatlarini vijdonan bajarishini davlat tomonidan ma’qullashida yuzaga

keladigan va tatbiq etish munosabatlarini hamda odatiy huquqiy xulq-atvor doirasidan chetga chiquvchi ijobiy faoliyatni tartibga soluvchi, alohida xususiyatga ega huquqiy tartibga solish metodiga ega tarmoqlararo kompleks institutdir.

Huquqiy rag‘batlantirishlar funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin: motivatsion (va’da qilingan oqibatlarning jozibadorligini anglash natijasida huquq subyektining faol ijtimoiy foydali harakatlarni sodir etishga undovchi); kommunikativ (rag‘batlantiruvchi normalar o‘zida muayyan huquqiy ma’lumotlarni mujassam etadi); ijtimoiy nazorat (huquq subyektining har qanday xatti-harakati, mazkur harakatlarga bog‘liq ravishda salbiy va ijobiy sanktsiyalar shaklida ifodalanadigan, jamiyat, davlat tomonidan e’tiborsiz va bahosiz qolmaydi); baholovchi (vakolatli hokimiyat organi biror shaxsning yuksak xizmatiga rasmiy ijobiy baho beradi, ommaviy ravishda tan oladi, ma’qullaydi, jamiyat uchun foydalilik darajasini belgilaydi); kafolatlovchi (rag‘batlantiruvchi sanksiyalar “ijtimoiy foydali natija – davlat ma’qullovi” aloqasini ta’minlashi kerak); tarbiyaviy (huquqiy rag‘batlantirishlar huquq subyektlarini ijobiy xatti-harakatga undaydi).

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbekiston Respublikasi huquqiy rag‘batlari tizimida davlat mukofotlari”** deb nomlanib, unda davlat mukofotlarining tushunchasi va tasnifi, xizmat ko‘rsatish - mukofotlashning asosi sifatida, xorijiy mamlakatlar huquqida davlat mukofotlari: qiyosiy-huquqiy tahlili masalalari bag‘ishlangan.

Dissertatsiyada huquqiy rag‘batlar tuzilish jihatdan murakkab ekanligi, rag‘batlantirishning eng muhim va universal vositasi bo‘lib davlat mukofotlari hisoblanishi, davlat mukofotlari jamiyat hayotining barcha sohalarini tartibga solishda qo‘llanilishi, mazkur vositaning jamiyat hayoti uchun o‘ta muhimligi, rag‘batlantirishning alohida shaxsning ongi va xulq-atvoriga samarali ta’sir ko‘rsatishi bilan belgilanishi ta’kidlanadi.

Muallif fikricha, davlat mukofotlarini kompleks tarzda tadqiq etish rag‘batlantirishlarning ushbu shakli to‘g‘risidagi mavjud bilimlarni tizimlashtirish va muayyan xulosalar qilishga, shu jumladan, uning shaxsning faol-ijobiy xususiyatlarini shakllantirishda ta’sir mexanizmini aniqlash; tahlil etilayotgan huquqiy hodisaning asosiy tushunchalarini ishlab chiqish; uning farqli belgilarini asoslash; o‘rganilayotgan obyektning tuzilishini, tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorlik prinsiplarini, ularning xarakterli xususiyatlarini asoslab berish; davlat mukofotlari instituti faoliyatining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi sabablarni aniqlash va ularni bartaraf etishning optimal usullarini topishga imkon beradi.

Muallif davlat mukofotlarini davlat huquqiy rag‘batlantirishlarning mustaqil shakli sifatida ajratib, ularni quyidagicha tasniflaydi: huquq subyektlari maqomini belgilovchi (huquq subyekti huquqiy maqomini o‘zgartiruvchi, mazmun jihati); konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinuvchi (huquqiy tartibga solish predmetiga ko‘ra tasniflash); qo‘shimcha ne’matlar in’om etuvchi (rag‘batlantirishlarni taqdim etadigan ne’matlariga ko‘ra tasniflash); faqat yuksak xizmati uchun qo‘llaniladigan (ahamiyati darajasiga ko‘ra tavsiflash).

Dissertatsiyada rag‘batlantirishning oliy shakli sifatida davlat mukofotlari ilmiy tahlil etilib, ular oliy ijobiy rag‘batlantirish shakli (chorasi) ekanligi, katta

mas’uliyat, shuhrat, ehtirom bilan bog‘liqligi, uni topshirish rasmiy, tantanali tarzda amalga oshirilishi, loyiq shaxs nomzodini mukofotga tavsiya etishning muhimligi, mukofotlar o‘ta jiddiy masala bo‘lib tegishli davlat siyosatini talab qilishi, shu bilan birga davlat mukofotlari tizimi jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda muntazam o‘zgarib takomillashib borishi uqtiriladi.

Ilmiy tadqiqot davomida fuqarolarning davlat mukofotlari to‘g‘risidagi qonunchilik qoidalarini bilishlari, davlat mukofotlari bilan rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida xabardorligini o‘rganish maqsadida ijtimoiy so‘rov o‘tkazildi. Ijtimoiy so‘rov natijalari quyidagicha: Siz davlat mukofotlari tizimi haqida ma’lumotga egamisiz?– degan savolga so‘rovnomada ishtirok etganlarning 14 foiz (112 nafari) – batafsil bilishini; 57 foizi (449 nafari) – qisman bilishini, 28 foizi (223 nafari) – hech narsa bilmasligini bildirgan. Siz yoki yaqin tanishlaringiz davlat mukofotiga ega bo‘lganmi?– degan savolga, ha – 63 foiz (491 nafari), yo‘q – 37 foizi (293 nafari); qaysi sohalarda mukofotlash tizimi eng faol deb hisoblaysiz?–degan savolga, 21 foizi (169 nafari) – fan va ta’lim; 13 foizi (103 nafari) – madaniyat va san’at; 16 foizi (126 nafari) – harbiy xizmat; 33 foizi (262 nafari) – sport; 4 foizi (34 nafari) – tadbirkorlik; 9 foizi (72 nafari) – davlat boshqaruvi; 2 foizi (18 nafari) – yuqoridagilarning barchasi, deb javob bergan.

Muallif fikricha, mukofotlash siyosati deganda, davlat hokimiyati tomonidan jamiyat, davlat oldidagi yuksak xizmatlari uchun alohida shaxslar va ularning jamoalari, hududlarni xizmatiga yarasha taqdirlash sohasida olib boradigan faoliyat yo‘nalishlaridir.

Mukofotlash to‘g‘risidagi qonunchilikni tahlil etish, huquqni qo‘llash amaliyotini tizimlashtirish, mukofotlash asoslarini tavsiflash davlat mukofotlarining quyidagi belgilarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi: *birinchisi*, davlat hokimiyatining oliy organi tomonidan ta’sis etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq davlat mukofotlari va unvonlarini ta’sis etish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlarini tashkil etadi; *ikkinchisi*, fuqarolar va boshqa subyektlarni rasmiy rag‘batlantirishning oliy shakli hisoblanadi; *uchinchisi,* O‘zbekiston Respublikasining butun hududida amal qiladi; *to‘rtinchisi,* O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat mukofotlari bilan taqdirlash to‘g‘risidagi farmonlari ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi; *beshinchisi,* orden, medal shaklida ifodalangan aniq muayyan ramziy belgiga ega bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida orden va medallar ta’sis etish to‘g‘risidagi qonun hamda orden, medallar to‘g‘risidagi nizomda ularning tashqi tavsifi mustahkamlanadi. *Oltinchisi*, davlat mukofotlariga taqdim etishning faktik asosi bo‘lib ko‘rsatilgan yuksak xizmatlar hisoblanadi; ye*ttinchisi,* davlat mukofoti bilan rag‘batlantirishning huquqiy asosi bo‘lib o‘zida yuridik faktlar tizimini qamrab oluvchi faktik tarkib hisoblanadi: subyekt tomonidan yuksak xizmat ko‘rsatish natijalariga erishilishi; taqdirlash to‘g‘risida taqdimnoma kiritilishi; turli davlat organlarida taqdimnomaning kelishilishi; rag‘batlantiriluvchi shaxs (tashkilot)ga muayyan mukofot berish to‘g‘risidagi huquqni qo‘llash aktining qabul qilinishi; *sakkizinchisi*, rag‘batlantiriluvchi shaxsning huquqiy maqomini o‘zgartiradi. Shu bilan davlat mukofotlari faxriy yorliq, qimmatbaho sovg‘a, xizmat pillapoyalaridan ko‘tarilishi

kabi boshqa rag‘batlantirish turlaridan farqlanadi; *to‘qqizinchisi,* aniq shaxsga tegishli bo‘ladi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlili asosida davlat mukofoti tushunchasining mualliflik talqini shakllantirildi: “davlat mukofoti – fuqarolarni iqtisodiyot, fan, madaniyat, san’at, Vatanni himoya qilish, davlat qurilishi, maorif, sog‘liqni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish, xayriya faoliyatidagi ulkan xizmatlari va davlat oldidagi boshqa xizmatlari uchun taqdirlashning oliy shakli”.

Dissertatsiyada O‘zbekistonda joriy qilingan davlat mukofotlari turlari va ularning mazmun-mohiyati aniq misollar bilan yoritilgan. Faqatgina 2025-yilning 1-yanvaridan 11-noyabrga qadar bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston va xorijiy fuqarolarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash to‘g‘risida o‘ndan ortiq farmonlar qabul qilingan. Mazkur farmonlarning aksariyati mamlakatimizda biror bir sanani nishonlash yoki bayram arafasida qabul qilingan bo‘lsa, boshqalari alohida bir shaxslarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash maqsadida qabul qilingan. Jumladan, shu davr ichida ordenlar bilan mukofotlangan soni – 352 nafarni, medallar bilan mukofotlanganlar – 560 nafarni, faxriy unvonlar (“Zulfiya” davlat mukofoti, “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti sovrindorlari bilan birgalikda) – 121 nafarni tashkil etgan.

Tadqiqot ishida rag‘batlantirishning asosi sifatida “yuksak xizmat” tushunchasiga aniqlik kiritish, mustaqil huquqiy vosita va huquqiy tartibga solish metodi sifatida rag‘batlantirishni qo‘llashda katta nazariy va amaliy ahamiyatga egaligi, huquqshunoslik fani oldida rag‘batlantirishni qo‘llash uchun yagona va so‘zsiz asos bo‘lgan shaxsning yuksak xizmatini har tomonlama tahlil etish masalasi o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etishi tahlil etilgan.

Tadqiqot ishida yuksak xizmatning muhim belgilari sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatilgan: *birinchisi*, tashqi namoyon bo‘lish shakli – odatiy huquqiy xatti-harakat doirasidan chetga chiquvchi, faol ijobiy harakat; *ikkinchisi*, aniq moddiylashgan harakat – aniq ijobiy natija; *uchinchisi*, faqat shaxs (shaxslarga) foyda keltiruvchi emas, balki butun jamiyat, davlatga foyda keltiruvchi natija; *to‘rtinchisi,* huquq subyekti tomonidan muayyan sabablarga ko‘ra (yuksak axloqiylik, axloqiy-moddiy manfaatdorlik, jamiyat, alohida shaxslar manfaati uchun, ko‘p hollarda o‘ziga zarar bo‘lsada, ichki e’tiqod bilan muayyan harakatlarni amalga oshirish) anglangan holda maqsadga yo‘naltirilgan harakat mahsuli sifatida erishilgan natija; *beshinchi*, davlat organlari tomonidan loyiq nomzodlarni mukofotlash uchun ishlab chiqilgan baholash mezonlariga tushadigan natija.

Muallif fikricha, xizmat ko‘rsatish – bu o‘z vazifalarini yuqori darajada oshirib bajarish yoki umume’tirof etilgan foydali natijaga erishish tufayli rag‘batlantirish choralari qo‘llaniladigan vijdonan bajariladigan harakat hisoblanadi.

Davlat mukofotlarining samaradorligi, uning insonni yuksak xizmat ko‘rsatishga undashi masalasi ijtimoiy so‘rovnoma orqali tahlil etilgan. Ijtimoiy so‘rovnomada jami 784 nafar respondent ishtirok etgan. Sizningcha, davlat mukofotlari insonlarni fidokorona faoliyatga undaydimi?– degan savolga 55 foizi (428 nafar) – ha, ancha samarali; 31 foizi (244 nafari) – qisman foydali; 9 foizi (69 nafari) – unchalik emas; 5 foizi (42 nafari) – butunlay befarqligini bildirgan. Rag‘batlantirish va mukofotlashda shaffoflik darajasini qanday baholaysiz?–degan savolga, 20 foizi (157 nafari) –juda yuqori, 53 foizi (418 nafari) – o‘rtacha; 16 foizi

(127 nafari)– past; 10 foizi (82 nafari) – bilmayman deb javob bergan. Sizningcha, mukofotlash mezonlari qanchalik adolatli ishlab chiqilgan? degan savolga, 39 foizi (309 nafari) – adolatli; 33 foizi (262 nafari) – qisman adolatli; 3 foizi (26 nafari) – adolatsiz; 24 foizi (187 nafari) umuman tushunmasligini bildirgan.

Dissertatsiyada davlat mukofotlari masalasida har bir mamlakatda o‘ziga xos qonunchilik shakllanganligi, davlat mukofotlari to‘g‘risidagi qonunchilikni konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar, qonunlar, kodekslar, farmon, nizom va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etishi, davlat mukofotlari har bir davlatning tarixiy taraqqiyoti, aholining diniy e’tiqodi, davlat boshqaruviga bog‘liq hisoblanishi ilmiy tahlil etilgan. Yevropa mamlakatlaridan Buyuk Britaniya, Fransiya davlat mukofotlari tizimida ro‘y bergan o‘zgarishlar, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari Rossiya, Qozog‘iston, Armaniston davlatlarining rag‘batlantirish tizimida davlat mukofotlarining tutgan o‘rni va ahamiyati, mexanizmi qiyosiy-huquqiy tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yangi O‘zbekistonda davlat rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosatining istiqbollari”** deb nomlanib, unda O‘zbekiston qonunchiligida huquqiy rag‘batlantirishning ifodalanishi, davlat mukofotlari to‘g‘risidagi qonunchilikni tizimlashtirish masalalari ilmiy tahlil etilgan.

Muallif O‘zbekiston huquqiy tizimini shakllantirishda huquqning rag‘batlantiruvchi usuli ustuvor ahamiyat kasb etib kelganligini, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili natijasida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy hayot sohalarini isloh etishda rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosat keng miqyosda o‘z ifodasini topganligi to‘g‘risida xulosaga kelishga imkon berishi, jamiyatda olamshumul o‘zgarishlar, yangilanish amalga oshirilayotgan bir sharoitda uning huquqiy asosi, ta’minotiga jiddiy e’tibor berilishi, jamiyat a’zolarini amalga oshirilayotgan islohotlar ishtirokchisiga aylantirish, har bir shaxs manfaatining qondirilishi islohotlarning samaradorligi va natijasiga bog‘liqligini anglab yetishi, ko‘p jihatdan davlatning rag‘batlantiruvchi huquqiy siyosati va qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlari mazmuniga bog‘liqligini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash tizimining poydevori sifatida amalga oshirilayotgan islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi, konstitutsiyaviy qoidalar alohida olingan huquq tarmog‘i emas, balki butun huquqiy tizimni yangilashning, liberallashtirishning asosi ekanligi o‘rganilgan.

Mehnat qonunchiligida rag‘batlantirish choralari, tartibi, davlat mukofotlariga taqdim etish masalalari belgilab berilgan. Unga ko‘ra, ishdagi yutuqlar uchun xodimga nisbatan rag‘batlantirish choralari qo‘llanilishi mumkin. Rag‘batlantirish turlari, ularni qo‘llash tartibi jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida, ichki mehnat tartibi qoidalari hamda mehnat to‘g‘risidagi boshqa huquqiy hujjatlarda va mehnat shartnomasida belgilanadi. O‘ziga nisbatan intizom haqidagi ustavlar va nizomlarning amal qilishi tatbiq etiladigan xodimlarga nisbatan rag‘batlantirish turlari, ularni qo‘llash tartibi intizom to‘g‘risidagi tegishli ustavlar va nizomlarda

belgilanadi. Xodimlar mehnat sohasida jamiyat va davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin.

